

RAQOBAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI VA INSTITUTSIONAL MUAMMOLAR

Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish
va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

mustaqil tadqiqotchi (PhD)

ORCID: 0009-0003-5768-9099

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqobat muhitining buzilishiga olib keluvchi asosiy omillar, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali iqtisodiy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro tajriba va IMD World Competitiveness Ranking 2025-yil ma'lumotlari asosida yuqori, o'rtacha va past raqobat darajasiga ega mamlakatlar qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar baholanib, bozor mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: raqobat muhiti, monopoliyalashuv, raqobat siyosati, iqtisodiy mexanizmlar, bozorga kirish to'siqlari, institutlar sifati, davlat boshqaruvi, biznes muhiti, IMD reytingi, global raqobatbardoshlik, iqtisodiy samaradorlik, xususiy sektor, xususiylashtirish, antimonopol tartibga solish, innovatsiyalar, investitsiya muhiti, bozor islohotlari.

Аннотация

В данной статье научно анализируются основные факторы, приводящие к нарушению конкурентной среды, их влияние на экономическую эффективность, а также эффективные экономические механизмы устранения данных проблем. В исследовании на основе международного опыта и данных IMD World Competitiveness Ranking 2025 проведён сравнительный анализ стран с высоким, средним и низким уровнем конкуренции. Кроме того, дана оценка проводимым в Узбекистане реформам по развитию конкурентной среды и разработаны научно-практические выводы и предложения, направленные на совершенствование рыночных механизмов.

Ключевые слова: конкурентная среда, монополизация, конкурентная политика, экономические механизмы, барьеры входа на рынок, качество институтов, государственное управление, бизнес-среда, рейтинг IMD, глобальная конкурентоспособность, экономическая эффективность, частный сектор, приватизация, антимонопольное регулирование, инновации, инвестиционный климат, рыночные реформы.

Abstract

This article provides a scientific analysis of the key factors leading to distortions in the competitive environment, their impact on economic efficiency, and effective economic mechanisms for addressing these challenges. Based on international experience and data from the IMD World Competitiveness Ranking 2025, a comparative assessment of countries with high, medium, and low levels of competition

is conducted. In addition, current reforms aimed at developing the competitive environment in Uzbekistan are evaluated, and scientific and practical conclusions and recommendations for improving market mechanisms are proposed.

Keywords: competitive environment, monopolization, competition policy, economic mechanisms, market entry barriers, institutional quality, public governance, business environment, IMD ranking, global competitiveness, economic efficiency, private sector, privatization, antitrust regulation, innovation, investment climate, market reforms.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sogʻlom raqobat muhitining mavjudligi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda isteʼmolchilar manfaatlarini himoya qilishning muhim omili hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni koʻrsatadiki, raqobat muhitining buzilishi-xususan, monopoliyalashuvning kuchayishi, kartel kelishuvlari, bozorga kirish toʻsiqlarining sunʼiy ravishda yaratilishi va davlatning haddan tashqari aralashuvi-iqtisodiy oʻsish surʼatlarining sekinlashishiga olib keladi. Xalqaro tadqiqotlarga koʻra, yuqori darajada monopoliyalashgan tarmoqlarda ishlab chiqarish samaradorligi oʻrtacha 20-25 foizga past boʻlib, narxlar raqobatli bozorlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori shakllanadi[1]. Shu sababli raqobat muhitining buzilish omillarini aniqlash va ularni bartaraf etishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda global miqyosda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur muammo Oʻzbekiston iqtisodiyoti uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda bozor islohotlarining chuqurlashuvi, davlat ishtirokidagi korxonalar ulushining bosqichma-bosqich qisqartirilishi hamda xususiy sektor faolligining ortishi raqobat muhitini mustahkamlash zaruratini kuchaytirmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, soʻnggi yillarda ustun mavqega ega xoʻjalik yurituvchi subyektlar ishtirokidagi bozorlarda raqobat cheklanishi bilan bogʻliq holatlar saqlanib qolmoqda [2]. Ayrim tarmoqlarda davlat korxonalarining yuqori ulushi va kirish toʻsiqlarining mavjudligi narxlarning shakllanishida raqobat mexanizmlarining toʻliq ishlamasligiga olib kelmoqda. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni pasaytirib, isteʼmolchilar xarajatlarining oshishiga sabab boʻlmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqobat muhitining buzilish omillarini bartaraf etishda faqat maʼmuriy choralar emas, balki iqtisodiy mexanizmlarni antimonopol tartibga solish, bozorga kirishni ragʻbatlantirish, davlat yordamini (subsidiyalarni) raqobatga neytral asosda tashkil etish hamda institutsional islohotlarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, iqtisodiy mexanizmlarga asoslangan raqobat siyosati uzoq muddatda innovatsiyalarni ragʻbatlantiradi, ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi [3]. Shu bois mazkur mavzuning ilmiy jihatdan chuqur oʻrganilishi va Oʻzbekiston sharoitiga mos iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat tushunchasi iqtisodiy nazariyada bozor mexanizmlarining markaziy kategoriyalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Klassik iqtisodiy maktab vakillari raqobatni ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida resurslar va bozor ulushi uchun kechadigan tabiiy jarayon sifatida izohlaydi. Xususan, Adam Smith raqobatni “koʻrinmas qoʻl” mexanizmi orqali narxlar va resurslar taqsimotini muvozanatlashtiruvchi asosiy kuch sifatida baholab, raqobat mavjud boʻlgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar samaradorlikni oshirishga majbur boʻlishini taʼkidlaydi [4]. Ushbu yondashuvga koʻra, raqobat iqtisodiy subyektlarning shaxsiy manfaatlarini jamiyat farovonligi bilan uygʻunlashtiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Neoklassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyada esa raqobat tushunchasi yanada kengroq talqin qilinadi. Michael Porter raqobatni faqat narxlar orqali kurash sifatida emas, balki innovatsiyalar, mahsulot sifati va strategik ustunliklar orqali namoyon boʻladigan murakkab jarayon sifatida izohlaydi [5]. Uning fikricha, raqobat muhitining intensivligi tarmoq rentabelligi va uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu jihatdan raqobat iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi boʻlib, uning cheklanishi bozorda samarasizlik va resurslar notoʻgʻri taqsimlanishiga olib keladi.

Raqobatning cheklanishi koʻpincha monopoliya tushunchasi bilan chambarchas bogʻliq holda oʻrganiladi. Xorijiy olimlar monopoliya sharoitida bozor mexanizmlarining izdan chiqishini asoslab beradilar. Paul Samuelson va William Nordhaus monopoliya mavjud boʻlgan bozorlarda narxlar ishlab chiqarish tannarxidan yuqori shakllanishini hamda ijtimoiy yoʻqotishlar (deadweight loss) yuzaga kelishini ilmiy jihatdan isbotlaydi [6]. Ularning tadqiqotlariga koʻra, monopoliya raqobat bosimini susaytirib, innovatsion faollikni pasaytiradi va isteʼmolchilar manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli raqobat siyosatining asosiy vazifasi monopoliyalashuv jarayonlarini cheklashdan iborat deb qaraladi.

Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 3-iyulda yangi tahrirdagi “Raqobat toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunni maqsadi tovar va moliya bozorlarida raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu Qonunda raqobatga quyidagicha taʼrif beriladi: “raqobat — xoʻjalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi boʻlib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasini umumiy sharoitlariga bir tomonlama tartibda taʼsir koʻrsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi [7]”.

METODOLOGIYA

Maqolada raqobat muhitining buzilish omillarini aniqlash va ularning bozor samaradorligiga taʼsirini baholash maqsadida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari hamda mualliflarning amaliy tajribalari tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil, analitik taqqoslash va guruhlash usullari qoʻllanilib, monopoliyalashuv, bozorga kirish toʻsiqlari, davlat aralashuvi va institutsional nomukammalliklarning narxlar shakllanishi, ishlab chiqarish samaradorligi hamda

iste'molchilar farovonligiga ta'siri qiyosiy baholandi. Olingan natijalar asosida raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitining samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy o'sish, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Biroq raqobat muhitining buzilishi, xususan, monopoliyalashuv jarayonlarining kuchayishi, bozorga kirish to'siqlarining yuqoriligi va ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustun mavqega ega bo'lishi iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.


Nazariy jihatdan bunday holat narx mexanizmining buzilishi, ishlab chiqarish tannarxining oshishi hamda iste'molchilar tanlov imkoniyatlarining cheklanishi bilan izohlanadi. Shu sababli raqobat muhitining buzilish omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini tahlil qilish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Amaliy nuqtai nazardan ham mazkur masala dolzarbligicha qolmoqda, chunki iqtisodiyotda raqobat yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda bozor ishtirokchilari o'rtasida teng sharoitlar shakllanmaydi. Natijada samarali korxonalar emas, balki bozor kuchiga ega subyektlar ustunlikka erishadi. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishiga va ijtimoiy farovonlikning pasayishiga olib keladi. Shu jihatdan raqobat muhitini tahlil qilish va uni yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni asoslash tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar raqobat darajasi va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, bozorlarida raqobat darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi o'rtacha 15-20 foizga yuqori bo'lib, narxlarning iste'molchilar uchun maqbulligi ta'minlanadi [8]. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlarida raqobatni cheklovchi normalar qisqartirilgan davlatlarda YaIM o'sish sur'atlari o'rtacha 1-1,5 foiz punktga oshgani qayd etilgan [9]. Ushbu ko'rsatkichlar raqobat muhitining iqtisodiy rivojlanishdagi hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etadi.

Bundan tashqari, xalqaro reytinglar ham raqobat siyosatining dolzarbligini tasdiqlaydi. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tuziladigan Global Competitiveness Index'da raqobat darajasi past bo'lgan mamlakatlarda bozor samaradorligi va innovatsion salohiyat ko'rsatkichlari sezilarli darajada orqada qolayotgani ko'rsatilgan [10]. Xususan, monopoliyalashuv yuqori bo'lgan tarmoqlarda investitsiya faolligi pasayib, yangi biznes subyektlarining bozorga kirishi cheklanadi. Bu holatlar raqobat muhitini rivojlantirish va uni buzuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi (1-rasm).

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, Sharqiy Osiyo eng raqobatbardosh mintaqa bo'lib qolmoqda, Gonkong va Tayvan yetakchiligida kuchli institutsional va iqtisodiy asoslar hisobiga, pasayishga qaramay, yuqori mavqeyini saqlab kelmoqda, G'arbiy Yevropa esa unga juda yaqin natijalarni namoyish etmoqda.



1-rasm. Mintaqalar bo'yicha umumiy raqobatbardoshlik reytingi¹

Janubiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida umumiy pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, mamlakatlar kesimida keskin tafovutlar mavjud bo'lib, ayrim davlatlar sezilarli o'sishga, boshqalari esa jiddiy pasayishga duch kelgan.

Shimoliy Amerika mintaqasida AQSh reytingi pasayganiga qaramay, boshqa davlatlar o'z raqobatbardoshligini oshirib, mintqa ichida nisbatan muvozanatli rivojlanish shakllanayotganini ko'rsatmoqda.

Sharqiy Yevropa hamda G'arbiy Osiyo va Afrika mintaqalari umumiy barqarorlikni saqlagan holda, ayrim yetakchi va quyi o'rinlardagi mamlakatlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini namoyon etmoqda.

MDH va Markaziy Osiyo mintaqasida raqobatbardoshlik darajasi nisbatan past bo'lib qolayotgan bo'lsada, ayrim davlatlarda ijobiy siljishlar kuzatilmogda, Janubiy Amerika esa umumiy muammolarga qaramay o'sish belgilarini ko'rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval.

Raqobat darajasiga ko'ra mamlakatlar (IMD WCY 2025)[11]

Guruh	Reyting o'rne	Mamlakat	Izoh
Eng yuqori raqobat rivojlangan mamlakatlar	1	Shveysariya	Kuchli institutlar, samarali davlat boshqaruvi, rivojlangan infratuzilma va biznes uchun qulay muhit ushbu mamlakatlarda barqaror yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlamoqda.
	2	Singapur	
	3	Gonkong SAR	
	4	Daniya	
	5	BAA	
	31	Yangi Zelandiya	Raqobat muhiti nisbatan barqaror bo'lsada, innovatsiyalar sur'ati, demografik omillar
	32	Fransiya	

¹ Muallif ishlanmasi

Guruh	Reyting o'rn	Mamlakat	Izoh
O'rtacha raqobatga ega mamlakatlar	33	Estoniya	yoki tartibga solish yuklamasi yuqori guruhga chiqishni cheklamoqda.
	34	Qozog'iston	
	35	Yaponiya	
Eng past raqobat mavjud mamlakatlar	65	Slovakiya	Institutsional zaiflik, makroiqtisodiy beqarorlik, siyosiy xatarlar va biznes muhitining cheklanganligi raqobatbardoshlikning past darajada qolishiga sabab bo'lmoqda.
	66	Vengriya	
	67	Kolumbiya	
	68	Peru	
	69	Venesuela	

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, eng yuqori raqobat rivojlangan mamlakatlar guruhiga kiruvchi davlatlar (Shveysariya, Singapur, Gonkong SAR, Daniya va BAA) o'zining kuchli institutsional bazasi, samarali davlat boshqaruvi hamda rivojlangan infratuzilmasi bilan ajralib turadi [11]. Ushbu mamlakatlarda biznes yuritish uchun qulay muhit yaratilgan bo'lib, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, raqobatni cheklovchi omillarni minimallashtirish va xususiy sektor faolligini rag'batlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Natijada ular global miqyosda barqaror yuqori raqobatbardoshlikni saqlab kelmoqda.

O'rtacha raqobatga ega mamlakatlar guruhida joylashgan davlatlar (Yangi Zelandiya, Fransiya, Estoniya, Qozog'iston va Yaponiya)da raqobat muhiti nisbatan barqaror bo'lsa-da, ularning yuqori guruhga ko'tarilishiga bir qator cheklovchi omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, ayrim mamlakatlarda innovatsiyalar sur'atining sekinlashuvi, demografik bosim, mehnat bozori muammolari yoki tartibga solish yuklamasining yuqoriligi raqobatbardoshlikning keskin oshishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu guruh davlatlari islohotlar orqali o'z pozitsiyalarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lib, ular uchun institutsional samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadvalda keltirilgan eng past raqobat mavjud mamlakatlar (Slovakiya, Vengriya, Kolumbiya, Peru va Venesuela)da esa raqobatbardoshlikning past darajada qolishi asosan institutsional zaiflik, makroiqtisodiy beqarorlik, siyosiy xatarlar va biznes muhitining cheklanganligi bilan izohlanadi. Ushbu omillar bozorga yangi ishtirokchilarning kirib kelishini qiyinlashtirib, monopoliyalashuv va samarasizlikni kuchaytiradi. Natijada mazkur mamlakatlarda raqobat muhitini rivojlantirish uchun chuqur institutsional va iqtisodiy islohotlar zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda raqobatni cheklovchi omillarni bartaraf etish, monopoliyalashuv darajasini kamaytirish hamda teng raqobat sharoitlarini yaratish asosiy vazifa sifatida ko'rilmogda. Bu holat O'zbekistonning xalqaro raqobatbardoshlik reytinglaridagi pozitsiyalarini yaxshilash zarurati bilan ham bevosita bog'liqdir.

Raqobat muhitini shakllantirishda institutsional asoslarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi faoliyatini kuchaytirish orqali ustun mavqega ega xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, kartel kelishuvlarini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan choralar kengaytirildi. Natijada, ayrim tovar va xizmat bozorlarida narxlar shakllanishida raqobat mexanizmlarining roli asta-sekin kuchayib bormoqda.

O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Energetika, transport, aloqa va moliya kabi strategik tarmoqlarda bosqichma-bosqich bozor mexanizmlarini joriy etish, davlat monopoliyalarini qisqartirish hamda xususiy investorlar uchun bozorga kirish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'rta va uzoq muddatda raqobat darajasini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Biroq mavjud ijobiy siljishlarga qaramay, O'zbekistonda raqobat muhitini cheklovchi muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ayrim bozorlarda kirish to'siqlarining yuqoriligi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar ulushining sezilarli darajada saqlanib qolishi hamda institutsional imkoniyatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi raqobatni to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli raqobat siyosatini faqat nazorat va cheklov choralari emas, balki iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlariga asoslash zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan raqobat siyosati bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining mantiqiy davomi bo'lib, uning samaradorligi institutsional islohotlarning izchilligi va davlat siyosatining ochiqligiga bog'liqdir. Xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan holda raqobat muhitini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, investitsiya jozibadorligini oshirish va iste'molchilar farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqobat muhitining rivojlanish darajasi mamlakatlarning institutsional sifati, davlat boshqaruvi samaradorligi va biznes muhitining ochiqligi bilan uzviy bog'liqdir. Xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan yuqori raqobatga ega mamlakatlarda bozor mexanizmlarining erkin ishlashi, xususiy sektor faolligi va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali barqaror iqtisodiy ustunlikka erishilmoqda. Aksincha, raqobat darajasi past bo'lgan davlatlarda institutsional zaiflik, bozorga kirish to'siqlari va monopoliyalashuv jarayonlari iqtisodiy samaradorlikni cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish yo'lida muhim institutsional va tarkibiy islohotlar amalga oshirilayotganini ko'rsatdi. Davlat ishtirokini qisqartirish, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish va monopoliyaga qarshi tartibga solishni kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan siyosatlar ijobiy natijalar bermoqda. Biroq, ayrim tarmoqlarda raqobat mexanizmlarining to'liq ishlamasligi, tartibga solish yuklamasining yuqoriligi va bozorga kirishdagi institutsional cheklovlar hali ham

saqlanib qolmoqda. Bu esa raqobat muhitini rivojlantirishni izchil va kompleks yondashuv asosida davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, O'zbekistonda raqobat muhitini yanada rivojlantirish uchun raqobat siyosatini faqat nazorat va cheklov choralariga emas, balki iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlariga tayangan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Xususan, bozorga kirish to'siqlarini bosqichma-bosqich qisqartirish, davlat ishtirokidagi korxonalarini transformatsiya qilish jarayonida real raqobatni ta'minlash, sohalar kesimida raqobat darajasini muntazam baholab boruvchi indikatorlar tizimini joriy etish hamda raqobat siyosatini investitsiya va innovatsiya siyosati bilan uyg'unlashtirish zarur. Ushbu yondashuv uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, tadbirkorlik faolligini kuchaytirish va iste'molchilar farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. Competition Policy and Economic Growth. Paris: OECD Publishing, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. Raqobat muhitining holati to'g'risida yillik hisobot, Toshkent, 2023.
3. World Bank. Competition Policy for Shared Prosperity and Inclusive Growth. Washington, DC, 2020.
4. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: Methuen & Co., 1904. p. 65-68.
5. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990. p. 33-36.
6. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. 19th ed. New York: McGraw-Hill, 2010. p. 174-178.
7. O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 3-iyul O'RQ-850-son "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>
8. World Bank. Competition Policy: Encouraging Thriving Markets for Development. Washington, DC, 2020. p. 12-15.
9. OECD. Product Market Regulation and Economic Performance. Paris: OECD Publishing, 2019. p. 27-30.
10. World Economic Forum. Global Competitiveness Report 2023. Geneva, 2023. p. 45-48.
11. IMD World Competitiveness Center, World Competitiveness Yearbook 2025.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**